

# BAYNALMILAL TERMINLARNING LINGVISTIK FARQLARI ASOSIDA TASNIFI

Ayatov Raximberdi Ibragimovich,  
“Alfraganus University” nodavlat oliy ta’lim  
tashkiloti Turizm fakulteti “Fakultetlararo  
chet tillar” kafedrası katta o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tilshunoslik va lingvistik tahlil sohasidagi dolzarb masalalar yoritiladi. Tilning kelib chiqishi va rivojlanishi, leksik birliklarning o’zgarishiga alohida e’tibor qaratiladi. Har bir tilga xos so’zlarning kelib chiqishi, yangi so’z va atamalarning shakllanishi, ularning lingvistik asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, til o’zgarishining usullari ham muhokama qilinadi. Maqola tilning dinamik va o’zgaruvchan tabiati, jamiyat hamda texnologik taraqqiyot bilan bog’liq o’zgarishlar doirasida tilshunoslik fanining muhim jihatlarini ochib beradi.

**Kalit so’zlar:** tilshunoslik, lingvistik o’zgarishlar, leksika, terminologiya, etimologiya, til rivojlanishi, o’zlashma so’zlar, madaniyat, texnologik taraqqiyot, lingvistik jarayonlar.

## Классификация интернациональных терминов на основе языковых различий

Аятлов Рахимберди Ибрагимович,  
старший преподаватель негосударственного  
высшего учебного заведения “Alfraganus University”  
факультета Туризма кафедры “Иностранных  
языков в Меж-факультетах”

**Аннотация:** В этой статье рассматриваются актуальные вопросы в области языкознания и лингвистического анализа. Особое внимание уделяется происхождению и развитию языка, изменению лексических единиц. Анализируется происхождение слов, характерное для каждого языка, образование новых слов и терминов, их лингвистические основы. Также обсуждаются методы изменения языка. В статье раскрываются важные аспекты лингвистики в контексте динамичной и изменчивой природы языка, изменений, связанных с обществом и техническим прогрессом.

**Ключевые слова:** языкознание, языковые изменения, лексика, терминология, этимология, развитие языка, заимствованные слова, культура, технологическое развитие, языковые процессы.

### **Classification of international terms based on linguistic differences**

Ayatov Rakhimberdi Ibragimovich

Senior teacher of the Non-state higher educational organisation "Alfraganus University", Faculty of Tourism, Department of "Foreign Languages in Interfaculties"

**Annotation:** This article covers current issues in the field of linguistics and linguistic analysis. Particular attention is paid to the origin and development of the language, the change of lexical units. The origin of words specific to each language, the formation of new words and terms, and their linguistic foundations are analysed. Methods of language change are also discussed. The article reveals important aspects of the science of linguistics within the framework of changes related to the dynamic and changing nature of language, society and technological development.

**Key words:** linguistics, linguistic changes, lexicon, terminology, etymology, language development, borrowed words, culture, technological development, linguistic processes.

XXI asr tilshunosligi har qanday lingvistik hodisani tahlil qilishda uzoq davrli evolyutsion taraqqiyotni boshdan kechirdi. Bu jarayon davomida tadqiqot usullari hamda o'rganilayotgan obyekt haqidagi qarashlar sezilarli darajada o'zgardi. Chet tillarini rivojlantirishning hozirgi bosqichida ilm-fan va texnikaning turli sohalariga oid terminlarning miqdor jihatdan sezilarli darajada oshishi, ularning umumxalq tiliga faol kirib borishi va so'z boyligini yangi birliklar bilan to'ldirishi kuzatilmoqda. Ilmiy-texnik axborotlarning jadallik bilan rivojlanishi bilan bog'liq holda ilmiy-texnik tarjimada terminlarning ishlash xususiyatlarini o'rganish masalasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda.

Ma'lumki, leksika va uning qatlamlari o'z xarakteriga ko'ra turlicha tovlanadi va o'ziga xos lingvistik qiymat kasb etadi. Bu holat leksikaning murakkab lingvistik qatlam ekanligidan dalolat beradi. Har bir xalq va uning tili boshqa xalqlar va ularning tillari bilan aloqadorligi orqali leksikasida aks etadi. Shu sababli til leksikasini oynaga qiyoslash mumkin: qandayki oynada qaralgan narsaning aksi ko'rinsa, til leksikasida ham ijtimoiy va ruhiy olamning barcha xususiyatlari

namoyon bo'ladi. Jamiyatdagi har qanday yangilik, o'zgarishlar, eng avvalo, lug'at tarkibida o'z aksini topadi. Leksika ijtimoiy hayotdagi barcha o'zgarishlar, xalqning tarixiy yo'li izlarini o'zida aks ettiradi.

Aynan shu nuqtayi nazardan qaraganda, muayyan tilning lug'at tarkibini o'rganishda chet til elementlarining mavqei, ularning amal qilish doirasi va o'ziga xos xususiyatlarini chuqur tahlil qilish zarur bo'ladi. Lug'at tarkibi ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarni aks ettirishida o'ziga xos qonuniyatlarga bo'ysunadi. Chunki boshqa xalqlar bilan madaniy, ma'naviy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar ham til, ham uning leksikasida aks etadi. Bunday jarayonlar til lug'at tarkibida chet so'zlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Masalan, hozirgi rus tilining lug'at tarkibida arab tilidan o'zlashgan so'zlar salmoqli o'rinni egallaydi.

Tarixiy rivojlanish jarayonida tillar doimo bir-biri bilan aloqa qilgan va bu aloqa hozirgacha davom etmoqda. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan, bu — ikki yoki undan ortiq tilning o'zaro ta'sirini bildiradi. Bu ta'sirlar natijasida tillarning tuzilishi va leksikasi o'zgaradi. O'zlashma so'zlar — bitta tildan ikkinchisiga o'tgan, yangi tilga moslashgan birliklardir. Bu so'zlar odatda, ular orqali ifodalanayotgan predmet yoki tushuncha bilan birga o'zlashadi.

Har qanday so'zning orqasida ma'lum tarix yotadi. Til — milliy va madaniy o'zlikning eng muhim vositasidir va u ko'plab qiziqarli faktlarni o'zida jamlaydi. Til, ayniqsa qadimgi yunon yoki lotin tillari kabi, konservativ yoki "o'lik" tilga aylanishi ham mumkin.

O'zlashgan so'zlarning ma'nosi etimologiya — ya'ni so'zlarning kelib chiqishini o'rganuvchi tilshunoslik sohasi orqali aniqlanadi. O'zlashma so'zlar til boyligini to'ldiruvchi, mustahkam joylashgan birliklar hisoblanadi. Tillarning o'zaro ta'sirini kuchaytiruvchi asosiy omil esa xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy munosabatlarning kengayib borayotganidir. Natijada, qarindosh yoki notanish tillar o'rtasida maxsus fond shakllanib boradi. Bu so'zlar ko'pincha fan va texnikaning turli sohalariga oid terminlar bo'ladi.

O'zlashgan so'zlar shu darajada yangi til tizimiga moslashadiki, ular chet so'z ekanligi faqat etimologik tahlil orqali aniqlanishi mumkin. Masalan:

- “Авиация” so'zi XX asr boshlarida rus tilida paydo bo'lgan bo'lib, fransuz tilidan kirib kelgan. Fransuz tilidagi bu so'z lotinchadagi *avis* (“qush”) so'zidan kelib chiqqan.

- “Автобус” so‘zi ham rus tilida XX asr boshlarida paydo bo‘lgan bo‘lib, ingliz tilidagi *auto* va *bus* birliklaridan tashkil topgan.

Umuman olganda, ilmiy matnlar aniq mantiqiy bayonga ega bo‘lishi kerak. Ushbu mantiqni to‘g‘ri va sifatli tarjima qilish tarjimonning asosiy vazifasidir. Ilmiy uslubdagi matnlar o‘ziga xos ifoda vositalariga ega bo‘lib, ularda so‘roq gaplar kamdan-kam hollarda ishlatiladi va u ham bo‘lsa, o‘quvchi e‘tiborini jalb qilish uchun xizmat qiladi.

Hayotimizda uchraydigan barcha atamalar ichida ingliz va rus tillaridan kirib kelgan birliklar alohida ajralib turadi. Bu atamalar xalqaro birliklar sifatida ko‘plab tillarda deyarli bir xil shaklda uchraydi. Chet tillardan so‘z va iboralarni o‘zlashtirish ikki asosiy yo‘l bilan amalga oshadi:

1. **To‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtirish** — so‘zlar shakli o‘zgartirilmasdan qabul qilinadi: *tractor* – *трактор*, *tram* – *трамвай*, *radio* – *радио*, *television* – *телевизор* va boshqalar.
2. **Kopiya usuli bilan o‘zlashtirish** — bu usulda so‘z yoki ibora ma’nosi va shakli boshqa tilda mavjud so‘zlar bilan almashtiriladi. Bu oddiy tarjimaga o‘xshab ko‘rinsa-da, aslida semantik va struktural o‘xshashlik asosida amalga oshiriladi.

**Xulosa:** Ushbu maqolada baynalmilal terminlarning leksik tizimga ta’siri, ularning kelib chiqishi va tilga moslashish usullari lingvistik asosda tahlil qilindi. Tilning jamiyat va texnologiya bilan o‘zaro aloqasi, leksik o‘zgarishlar va terminlar orqali namoyon bo‘ladi. Har bir tilning rivojlanishi — uning boshqa tillar bilan o‘zaro aloqasi va boyish jarayoni bilan chambarchas bog‘liqdir.

#### Adabiyotlar ro‘yxati

1. Маринова Е. В. Вопрос об аналитических прилагательных в отечественной и зарубежной лингвистике // Вестник ННГУ. – 2010. – № 4-2. – С. 628.
2. Degaltseva A. V. Narechiya koronavirusnogo perioda: slovoobrazovatel’nye i semantiko-sintaksicheskie harakteristiki. In: I. G. Rodioniva (Ed.). Yazykovaya politika i voprosy gumanitarnogo obrazovaniya. Penza.
3. Ushakov B. Yu. Semantika i funkcii leksicheskikh zaimstvovanij v sovremennoj russkoj presse. [Semantics and functions of lexical borrowings in the modern Russian press]. Thesis of Philol. Cand. Diss. St. Petersburg, 2009.
4. Банков А.Я. Роль французского языка в интернационализации словарного состава нероманских языков // Современные проблемы романистики:

- функциональная семантика: Тез. V Всесоюз. конф. по романскому языкознанию. Калинин: Калинин.гос. ун-т, 1986. Т. I. С. 17–19.
5. Зилберман Л. И. Структурно-семантический анализ текста. — М.: Наука, 1982. — 136.
  6. R.I. Ayatov. Ingliz tilini o'qitishni aralash ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda didaktik almashinuv metodi orqali takomillashtirish. 2025/1. Журнал Inter education and global study (Ilmiy-nazariy va metodik jurnal). Том 1, Номер 1. Страницы 62-68.
  7. Формирование и основы терминологии информационно-коммуникационных технологий. Стр. 204-212. Современная наука. Модели инновационного развития.. Санкт-Петербург (25-февраля 2025).
  8. R.I.Ayatov. "Elicitation" metodi orqali oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishni rivojlantirish. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. 40-47 b.b., 2025-yil. ISSN 2181-1709 (P).
  9. R.I.Ayatov. Effective teaching of the practical English language module using the elicitation method. "Экономика и социум". 6 bet, 2024-yil. 18581/202.
  10. R.I.Ayatov. Education instrument for the agro-tourism profile. O'zbekistonda uzumchilik: Innovatsion yondashuv va agrotexnologiyalarni qo'llashning zamonaviy usullari. 130-138 p.p., 2024-yil. ISBN 978-9910-680-07-6.
  11. R.I.Ayatov. Teaching English in higher education institutions: A comprehensive analysis of strategies and outcomes. International conference on interdisciplinary science. -bet, 2024-yil.
  12. R.I.Ayatov. Methods of language teaching and learning using ICT. So'nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. Respublika ilmiy-uslubiy jurnali. 2024 7-jild 1-son 13 yanvar. 132 bet.